
Tuman hokimi umumta'lim maktablaridagi isitish tizimlarining barqarorlik holatini o'rgandi

Rishton tumanidagi barcha hududlarda hokim, maktab direktori va mahalla raislari bilan maktablardagi issiqlik ta'minoti holati o'rganilmoqda. Bugungi vaziyatni alohida e'tiborga olib, Rishton tumani hokimi Sufhonjon Soliev tumandagi maktablar issiqxonalarini o'rgandi. Birinchi galda ta'lim muassasalarining issiqlik tizimi o'rganildi. Qishning sovuq kunlariga va o'quv jarayonlariga ko'rilgan tayyorgarlik holatini ko'zdan kechiriddi. O'qituvchilar va maktab direktorlari bilan suhbatda mavjud muammolarni bartaraf qilish, zarur sharoit yaratish bo'yicha kelishib olindi. Tuman hokimi tomonidan birinchi galda maktablar issiqlik tizimi va ish faoliyatini olib borayotgan pedagog-xodimlar uchun yaratilgan sharoitlar va topshiriqlar ijrosi o'rganildi. Umuman olganda, bu kabi o'rganishlar boshqa hududlarda ham davom etmoqda.

2023-01-16 16:56:06